

SHOVOT YERINING QADIMIY IZLARI VA ARXEOLOGIK YODGORLIKLAR TAHLILI

Normetov Bunyod Jasur o'g'li

*Termiz davlat universiteti tarix fakulteti Arxeologiya
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatining Shovot tumani hududida joylashgan qadimiy arxeologik yodgorliklar va ularning tarixiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda Shovotdagi Tuproqqal'a, Katqal'a, Voyangan qal'asi kabi yirik qal'a va shaharcha qoldiqlari o'rganilib, ularning shaharsozlik, mudofaa va iqtisodiy hayotdagi roli yoritilgan. Shuningdek, Yusuf Hamadoniy va Gilovdor bobo kabi diniy majmualar orqali hududning ma'naviy va diniy taraqqiyoti haqida ham ma'lumotlar berilgan. Maqola Shovot hududining qadimgi sivilizatsiyalar tarixida tutgan o'rni, madaniy merosning zamonaviy ahamiyati va uni asrash zarurligiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Kat qal'a, Tuproq qal'a, Vayangan qal'a, Yusuf Hamadoniy maqbarasi, Gilovdor bobo maqbarasi, Shovot kanali, Anushaxon, Anbar-Monoq, Cho'qli, Purfayz, Shahobod

Kirish: Shovot tumani – O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatidagi tumanlaridan biri hisoblanadi. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Janubidan Qo'shko'pir tumani, janubi-sharqdan Urganch tumani, sharqdan Yangibozor tumani, shimoli-sharqdan Gurlan tumani, shimoliy, shimoli-g'arb va g'arbdan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,46 ming km kv ni tashkil etadi. Tumanda 1 shaharcha, 11 qishloq fuqarolari yig'ini mavjud. Bularga Beshmertan, Bo'yirachi, Ijtimoiyat, Katqal'a, Xitoy, Chig'atoyqal'a, Cho'qli, Shovotqal'a, O'zbekiston, Qang'li, Qiyotlarni sanab o'tishimiz mumkin. Tuman markazi – Shovot shaharchasi hisoblanadi. Shovot tumani toponomikasining kelib chiqishi tarixi bo'yicha turli xil qarashlar bor. U Xorazm viloyatidagi Shovot kanalining nomidan olingan degan qarashlar ham uchraydi. Anushaxon 1681-1682 yillarda Xonqa qal'asidan 7-8 kilometr yuqoridan Amudaryodan oqib keladigan 160 kmlik kanal qazdiradi. Aholi unga Shohobod kanali deb nom beradi. Shovotlik ijodkor Bahrom Ro'zimuhammadning fikriga ko'ra Shovot atamasi Samarqand viloyatidagi ayrim hududlarda suvga tushmoq degan ma'noda ishlatiladi deb ta'rif beradi. Ayrim tadqiqotchilar Shovot so'zi Shohobod so'zining mahalliy shevadagi talaffuzi oqibatida paydo bo'lgan. Tuman nomi Shohobod kanali va Shohobod qal'asi nomi bilan bog'liq deb o'ylaydi. S.Qorayevning fikriga ko'ra Shohobod kanali dastlab Purfayz ya'ni serfayz deb atalgan. Purfayz atamasi abjad yil hisobi bo'yicha kanal qurilgan yilni ham

eslatib turadi. O'zbek tilining toponimlarining o'quv izohli lug'ati kitobida shohning, shoh laqabli kishining qishlog'i deya talqin qilingan. Shovot kanalining uzunligi 150 km, suv oqimi 210 m³/s ni tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 112 ming gektardan iborat. O'zbekistonga kanalning 78 km uzunlikdagi qismi va 37 ming gektar sug'oriladigan maydonlar, Turkmanistonga 72 km va 75 ming gektar yerlar tegishli. Asosan sharqiy-g'arbiy yo'nalishda shimolga bir oz qiyalik bilan oqadi.

Asosiy qism: Shovot tumani Xorazm viloyatida joylashgan boy tarixiy merosi bilan ajralib turadi. Bu hududda qadimiy qal'alar, arxeologik yodgorliklar va diniy obidalar mavjud bo'lib, ular O'zbekistonning madaniy va tarixiy boyligini namoyon etadi. Bularga Tuproqqal'a, Katqal'a, Voyangan qal'a, Yusuf Hamadoniy va Gilovdor bobo majmualari aytishimiz mumkin. Vayangan bobo maqbarasi — XVI hamda XIX asrlarga oid Xorazmdagi tarixiy obyekt. Obyekt Shovot tumani Cho'qli qishlog'i Ogahiy mahallasida joylashgan bo'lib, maqbara Vayangan qal'asi atrofidagi qabriston hududida bunyod etilgan. Maqbara hududi miloddan oldingi II—IV asrlarga mansub bo'lgan Vayangan qal'asi (shahri) o'rnida joylashgan. Vayangan ancha qadimiy shahar bo'lib, „Go'ro'g'li“ dostonida shu qal'a nomi tilga olingan. Vayangan ismli kishi shaharni mudofaa qilgan avliyo ekanligi haqidagi rivoyatlar ham mavjud. Keksa avlod vakillarining so'zlariga ko'ra, bu qal'ani G'avsul A'zam Javloniyning o'g'li Voyangan qurdirganligi sababli maqbara uning nomi bilan atalib kelinadi. Voyangan bobo vafot etgandan so'ng uni shu qal'a atrofiga dafn etishgan. Xotirasini abadiylashtirish maqsadida uning qabri ustiga Xiva xoni Olloqulixon davrida maqbara qurilgan. Maqbara devorlarining tabiiy nurashi va XX asrning 40—60-yillaridagi sovet hokimiyati tomonidan yuritilgan ateistik targ'ibot tufayli maqbara qarovsiz qolib vayrona holatga kelib qolgan. O'zSSR Ministrlar Sovetining 1973-yil 21-dekabr № 539 qarori bilan obida davlat muhofazasiga olingan. 1988-yili Vayangan bobo maqbarasi tubdan rekonstruksiya qilingan va asl holiga keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin turli homiylarning tashabbusi va amaliy yordami nartijasida maqbara binosida keng ko'lamli ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Maqbara yaqinida tuzli kichik ko'l mavjud bo'lib, odamlar uni turli kasalliklarga shifo ekanligiga ishonib kelishadi va har yili shifo izlab tashrif buyirishadi. Shovot tuproq-qal'asi — bu Anbar-Manoq qishlog'idagi Xorazm fermer xo'jaligi xududida tekislikda joylashgan. Yodgorlikning tarxi aylana shaklda, umumiy maydoni-4gektar. Yodgorlik qadimda mudofaa devor bilan o'rab olinib, yarim aylana burjlarga ega bo'lgan. Shaharning ichki qismida jamoat binolari qoldiqlari sezilmaydi, ark-a'lo mavjud emas. Shahar shimoliy va janubiy tomonidan darvozalarga ega. 1999-2000 yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologiya, tarix va falsafa bo'limning arxeologiya guruxi To'proq qal'ada qazish ishlarini olib bordi. Yodgorlikning

mudofaa tizimi tarixini o'rganish maksadida shimoliy-sharqiy qismidagi devorda qazish ishlari amalga oshirildi, natijada mudofaa devorining ustki qismi to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilganligi aniqlandi. Shu bilan birga, devorning tashqi tomonidagi yarim aylanali burjlar oralig'ida tozalash ishlari olib borildi, natijada mudofaa maydoni 22m, burjning devordan yon tomonga chiqishi 5,25-6,25m uning ichki qismida to'g'ri burchakli xonaga ega bo'lib, xajmi 2,21-2,62x7,07-7,22m. Devor va burj avval paxsadan keyinchalik to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan. (40x40x10sm, 41x41x12sm). Arxeologik ashyolar Tuproqqal'aning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi uch qurilish davridan iborat ekanligini yorqin tasvirlaydi. I qurilish davrida qal'a paxsa devor bilan o'rab olingan bo'lib, yo'lak va yarim aylanali burjlarga ega bo'lgan. II qurilish davrida paxsa devor ustiga to'rt tomoni teng xom g'ishtli devor qurilgan. Bunday xajmdagi g'isht burj qurilishda ham ishlatilgan. Qal'aning ichki qismida devor bo'ylab uy xonalari qurilgan. III qurilish davri. Bu qurilish davrida g'isht devor ustiga xom g'isht aralash paxsa devor qurilgan. Qal'a ichkarisida saroylar, ma'muriy binolar va oddiy turar joylar bo'lgan. Qazishmalar natijasida sopol idishlar, me'moriy bezaklar va qadimgi tangalar topilgan. Topilmalar orasida qadimgi Xorazm yozuvlari ham aniqlangan, bu esa Tuproqqal'aning o'z zamonasida rivojlangan madaniy markaz bo'lganini ko'rsatadi. Milodiy IV asrga kelib, qal'ada madaniy hayot barham topgan. Tuproqqal'a – Xorazm vohasining qadimiy shaharsozlik san'ati, harbiy arxitekturasini va ijtimoiy hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Hozirda bu joy tarixiy yodgorlik sifatida muhofaza qilinmoqda. Kat qal'a – Xorazm viloyati Shovot tumanida Urganch shahridan 21 km shimoli-g'arbda Kat qishlog'i hududida joylashgan tarixiy obida. Kat qal'a 9,5 gektar maydonni egallagan. Shovotdagi Kat qal'a haqida Munis, Ogohiy, Abdukarim Buxoriy, 1741-yilda Xiva xonligiga tashrif buyurgan Gladishev, Muravin, 1753-yilda Xorazmga kelgan Rukavkin, 1842-yilda sharqshunos A.L.Kun asarlarida yozilgan. Qal'aning tashkil topishi 1947 yildagi arxeologik qazilmalar davrida topilgan hosildorlik, suv ma'budasi Anaxita haykalchasi va undan bir muncha keyinroq Katqal'adan topilgan Xorazmshoh Artavning zarb qildirgan asosiy pul birliklari hisoblanmish kumush va oltin tangalari bilan bog'liqdir. Katqal'a tarixini o'rganishda 1974 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoraqalpoq filialining M.Mambetullaev boshchiligidagi arxeologik otryadi (a'zolari–Yu.Manilov, A.Yusupov, G.Xo'janiyozov) madaniy qatlamlarni ochib, qolgan joylarda tozalash ishlarini olib bordi va shu bilan birga shaharning stratigrafiyasi xronologiyasini aniqlash uchun ikki joyda (shimoliy sharqiy, markaziy qismda) shurf solindi. Bu tadqiqotlarning natijalari ilmiy to'plam sifatida nashr qilingan. Unga ko'ra shahar boy madaniy qatlamlarga va murakkab ponografik tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shaharda to'rt hayotiy bosqichi mavjud bo'lganligini ko'rsatdi. Bular quyidagilar: 1 – bosqich. Miloddan

avvalgi IV- III asrlar. 2 – bosqich. Milodiy VII–VIII asrlar. 3 – bosqich. IX–XI asrlar. 4 – bosqich. XVII–XIX asrlar. Tadqiqotchi olimlar qal’a tarixining to’rt davrini o’z ichiga olgan sopol idishlar, taqinchoqlar, pul tangalarni ham topadilar. 2005–2007 yillarda shaharda arxeologik tadqiqotlarni tarix fanlari nomzodlari Q. Masharipov, S. Davlatov, Q. Sobirov va B. Sa’dullaevlar olib bordilar. Qazish, tadqiqot ishlariga ko’ra Katqal’ada qishqi, yozgi masjid bo’lib, uning yonboshidan paxsa devor yurilgan. Masjidlar poydevori pishiq g’ishtlardan quyib chiqilgan. Qishqi masjid ichida mehrav va 16 ta ustun tagkursi borligi ma’lum bo’ldi. Masjidning shimoliy qismida yozgi masjid va bitta xona hamda tashqariga chiqadigan yo’lak ochib o’rganildi. Shuningdek butun devor bo’ylab masjidning umumiy rejalashtirilishini aniqlash uchun tozalash ishlari olib boriladi. Yozgi masjiddan qishqi zalga uchta eshik orqali kirilgan. Devorlar va pol ganch suvoqlar bilan suvalgan. Derazalar o’yma ganch panjaralardan iborat bo’lgan. Bu erdan asosan XVIII–XIX asrlarga oid sopol buyumlar topildi. 2021 va 2022 yillarda Xorazm Ma’mun akademiyasi arxeologlari tomonidan Kat qal’ada keng ko’lamli qazish ishlari olib borilgan. Tadqiqotlar davomida qadimgi qurilish uslublari, sopol idishlar, tangalar va boshqa tarixiy artefaktlar topilgan. Kat qal’a atrofi qadimiy sug’orish tizimlariga bog’liq bo’lgan, bu esa shahar atrofidagi hayotiy faoliyatni ko’rsatib beradi. Bu yodgorlik nafaqat tarixiy, balki ilmiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Yusuf Hamadoniy majmuasi Shovot tumanida joylashgan. Yusuf Hamadoniy — XI asrda yashab o’tgan mashhur islom olimi, sufiy va murshid (ustoz) bo’lgan. U Movarounnahr va Xuroson hududlarida tasavvuf ta’limotini keng yoygan. Asosan Termiz, Marv, Balx kabi shaharlarda faoliyat yuritgan, ammo Shovot tumanida ham unga bag’ishlangan ziyoratgoh qad ko’targan. Majmua Shovot qishlog’i hududida joylashgan. Bu yerda Yusuf Hamadoniyga nisbatan hurmat sifatida maqbara va ibodatxonalar qurilgan. Majmua me’morchiligi sodda, ammo qadimiy Sharq an’analarini o’zida aks ettiradi: paxsa devorlar, koshinkor bezaklar va baland peshtoqlar mavjud. Majmua Shovot va butun Xorazm vohasi aholisi uchun muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi. Har yili ko’plab mahalliy va xorijiy ziyoratchilar bu yerga tashrif buyurib, duo va tilaklar qilishadi. Gilovdor bobo majmuasi ham Shovot tumani hududida joylashgan. Gilovdor bobo haqida tarixiy manbalarda ko’p aniq ma’lumotlar saqlanmagan, ammo u Xorazmda qadimdan hurmat qilingan diniy shaxs sifatida tilga olinadi. U sufiya yo’lida xizmat qilgan, xalq orasida odil va donishmand inson sifatida shuhrat qozongan. Gilovdor bobo maqbarasi ham Shovot qishlog’ida, Yusuf Hamadoniy majmuasiga yaqin joylashgan. Maqbara oddiy, xalqona uslubda qurilgan, paxsa devorlar va gumbazli tom bilan ajralib turadi. Maqbara atrofi yashil bog’lar bilan o’ralgan va tinch ziyorat joyi sifatida saqlanib kelmoqda. Gilovdor bobo majmuasi diniy-ma’naviy tarbiyani mustahkamlashda, qadimiy sufiya an’analarini

saqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu yer mahalliy aholi va sayyohlar uchun ma'naviy dam olish va duo qilish joyi hisoblanadi.

Xulosa: Shovot tumani hududi o'zining boy tarixiy merosi, qadimiy shahar qoldiqlari va arxeologik yodgorliklari bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Shovot qadimda yirik madaniy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lgan. Tuproqqal'a, Katqal'a, Voyangan qal'asi kabi qadimiy qal'alar Xorazm vohasining shaharsozlik san'ati va mudofaa tizimi taraqqiy etganligini yaqqol namoyish etadi. Qazilma ishlari davomida topilgan sopol buyumlar, tangalar, qurilish qoldiqlari va yozuvlar hududda rivojlangan iqtisodiy faoliyat va madaniy hayotdan dalolat beradi. Shuningdek, Yusuf Hamadoni va Gilovdor bobo majmualari Shovotning diniy-ma'naviy tarixini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, Shovot tumanining arxeologik yodgorliklari Markaziy Osiyoning qadimgi sivilizatsiyalaridan biri — qadimgi Xorazm madaniyatining boy tarixini ochib beradi. Bu yodgorliklar nafaqat tarixiy ilm uchun, balki turizm, madaniy merosni saqlash va yosh avlodni tarbiyalash uchun ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хоразм тарихи. 1-жилд. Урганч 1997-йил. 11-бет
2. Пьянков И. В. Хорасмии Гекатая Милетского 2-3 ст. //ВДИ.
3. Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil.
4. G'ayratdin Xo'janiyazov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston" 2007-yil.
5. Вайнберг Б.И. Скотоводческие племена в древнем Хорезме. //Культура и искусство древнего Хорезма. М., «Наука» 1981 г
6. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент, Изд-во АН УзССР. 1957.
7. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ. 1948.
8. T.Nafasov V.Nafasova "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati" Toshkent -2007
9. Пьянков И. В. Хорасмии Гекатая Милетского. //ВДИ. № 2. М., «Наука»1972 г
10. <https://www.mamun.uz/bulletin>
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Shovot_tumani
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Shovot_Tuproq-qal%CA%BCasi